

**SAMARQAND VILOYATI IXTISOSLASHTIRILGAN
SAN'AT MAKTAB INTERNATI ONA TILI VA ADABIYOT
FANI O'QITUVCHISI XUDAYKULOVA GULOV
ESANOVNANING**

OCHIQ DARSİ

MAVZU: MUHAMMAD YUSUFNING HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH

SAMARQAND 2016

Mavzu: Muhammad Yusufning hayoti va ijodini o'rganish.

Darsning maqsadi:

- a) ta'limiy: O'quvchilarning adabiyot faniga bo'lgan qiziqishini oshirish, she'riy go'zallik va nafosatni his qilishga o'rgatish.
- b) tarbiyaviy: Milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash.
- c) rivojlantiruvchi: She'rnii ifodali o'qish va she'riy asarni tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirish.
- d) uslubi: Ijodiy izlanish.

Darsning turi: Amaliy, nazariy, aralash, noan'anaviy, an'anaviy.

Darsning jihizi: Darslik, ko'rgazmali quollar, shoir portreti, she'riy to'plamlari,

Didaktik jihoz: Tarqatma materiallar, slaydlar, bukletlar.

Texnik jihoz: Kompyuter.

Darsning borishi:

a) Salomlashish, b) tozalikni aniqlash, d) davomatni aniqlash

O'qituvchi: Assalomu alaykum aziz o'quvchilar. Bugungi darsimiz bulbulzamon shoir Muhammad Yusufning hayoti va ijodini o'rganishga bag'ishlanadi.

Muhammad Yusuf milliy adabiyotimiz va madaniyatimizni rivojlantirish, xalqimiz ma'naiyati, ongu va tafakkurini yuksaltirish, yosh avlod qalbida o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini ezgu fazilatlarini kamol topshirishda yorqin is'tedodi, betakror badiiy asarlari, ibratli faoliyati bilan katta hissa qo'shgan. Bugun ham shoir o'z she'rlari orqali o'quvchilar qalbida hayrat va hayajon uyg'otib kelayotgan ijodkordir. (O'qituvchi bir necha kun avval sinf o'quvchilarini ikki guruhgaga bo'lib Muhammad Yusufning hayoti va ijodini mustaqil o'rganish, she'rlardan yod olish, shoirning hayoti va ijodi bo'yicha kompyuter orqali slayd tayyorlash topshirig'ini uy vazifasi sifatida beradi.)

Har bir guruuh shoirning she'riy to'plamlaridan nom qo'yishgan.

1-guruuh nomi: Vatanim. Izoh "Biz jannatmakon O'zbekiston vatanining farzandlarimiz:

*Men dunyoni nima qildim,
O'zing yorug', jahonim.
O'zim xoqon,
O'zim sulton,
Sen taxti sulaymonim.
Yolg'izim, Yagonam deymi,
Topingan koshonam deymi,
O'zing mening ulug'lardan
Ulug'imsan, Vatanim...*

2-guruh nomi: Tilak. Izoh: “Barchangizga yaxshi tilaklar yor bo’lsin, Olloh yurtimizni asrab yursin.”

*Har kimsaning bo'lsin o'zin boshponasi,
Har kimsa o'z ko'lbasida davron sursin.
Odanni-ku aytmay turay bu dunyoda,
Hatto qushning yot butoqda ini qursin.*

Dars musobaqa tarzida bo'lganligi uchun shartlar asosida olib boriladi

1-shart: Har bir guruh a'zolari kompyuterda tayyorlangan slaydlarini namoyish etib

1-guruh – Shoirning hayoti haqida

2-guruh – Shoirning ijodi haqida tanishtiradi.

(Bunda o'quvchilarining tayyorlagan slaydlarinig dizayniga, kompyuterda ishslash mahoratiga va ma'lumotlar to'liqligi baholanadi.)

2-shartni boshlashdan oldin o'qituvchi tomonidan Muhammad Yusufning o'zi aytgan she'rini kompyuter orqali havola etadi.

2-shart: 3 – yo'nalishda olib boriladi.

1. Har bir guruh ishtirokchisi o'zi yoqtirgan she'rini yoddan aytib beradi.
2. Shu vaqtning o'zida guruh ishtirokchilaridan biri doskaga chiqib she'r mazmunini rasm orqali tasvirlab boradi.
3. Rasm tasvirlanib bo'lgandan so'ng, shu guruh ishtirokchisilaridan biri she'rni nasr yo'nalishida so'zlab beradi.

3-shart: O'qituvchi doskaga turli rasmlar ilib chiqadi(masalan tulpor, lolaqizg'aloq, bulbul, majnuntol, kapalak,...) va har bir guruh a'zolari chiqib

rasmlardan birini tanlab shunga doir shoirning she'rlaridan parcha aytib beradi(Eng ko'p parcha aytgan guruh g'olib bo'ladi).

4-shart: O'qituvchi shoirning hikmatlaridan birini aytadi va har bir guruh ishtirokchilari doskaga chiqib sahna ko'rinishi orqali mazmunini ochib beradi.

1-guruhga: "Yomon do'stdan yerda yotgan tosh yaxshi,
Yorilsa ham egilmagan bosh yaxshi."

2-guruhga: "Mard mushukni yengar,
Nomard bo'yin egar"

5-shart: (Kim oshdi savdosi) O'qituvchi oldindan tayyorlab qo'ygan sovg'alarga (albom, she'riy to'plam kitobchasi, yon daftarcha va h.) o'quvchilar narx berishadi. Narx 1 so'mdan 20 so'mgacha belgilanadi. O'quvchilar tomonidan narx berilganidan so'ng, o'quvchiga aytilgan narxga qarab shuncha savol beriladi. Masalan: Sovg'aga o'quvchilardan biri 10 so'm belgiladi va shu o'quvchiga 10 ta savol beriladi:

1. Muhammad Yusufning 1-sheriy to'plami qachon nashr qilingan? **1985-yilda, "Tanish teraklar"**
2. Muhammad Yusufning "Mehr qolur, muhabbat qolur" she'rida qaysi oshiqlar nomi eslanadi? **Tohir va Zuhra**
3. "Nekbin tuyg'ular" qaysilar? **Toza, pok, samimi tuyg'ular**
4. Muhammad Yusufning "Vatanim" she'ri qanday boshlanadi? **Men dunyonim nima qildim, O'zing yorug' jahonim...**
5. Muhammad Yusufning "Mehr qolur, muhabbat qolur" she'ri necha bandlik she'r? **Murabba'-4 misralik 5 band, 20 misradan iborat**
6. Muhammad Yusuf qachon va qayerda tug'ilgan? **1954-yil 26-aprelda Andijon viloyati Marhamat tumani Qovunchi qishlog'ida tug'ilgan**
7. Dastlabki she'riy namunalari nechanchi yil chop etilgan? **1976-yil O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasida**
8. Muhammad Yusufga "O'zbekiston shoiri" unvoni qachon berilgan? **1998-yilda**
9. Muhammad Yusuf necha yil umr ko'rgan? **47 yil**
10. Muhammad Yusuf qachon vafot etgan? **2001 – yil 31 – iyul Qoraqalpag'istonning Ellikqal'a tumanida safar chog'ida**

Dars so'ngida o'quvchi ijrosida "Vatanim" qo'shig'i kuylanadi.

O'qituvchilar tomonidan barcha shartlar baholanib boriladi va musobaqa g'oliblari aniqlanadi.